

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Eshmurodova Zarinabonu Obidjonovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti ,

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi

4- bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan va bu mavzular bugungi kunda qanchalik darajada muhimligi va maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalarning har bir o‘rganayotgan bilimida , fikrlashida , ma‘lum bir tushunchani kengroq anglashida , muammolarga ijodiy qarashi va pedagoglarning o‘rni haqida keltirilgan .

Kalit so‘zlar : Tanqidiy va ijodiy fikrlash , maktab yoshidagi bolalar , maktabgacha yoshdagi bolalar , pedagoglarni o‘rni .

Abstract. This article discusses the development of critical and creative thinking in children and how important these topics are today and how they affect the knowledge, thinking, broader understanding of a certain concept, creative approach to problems and the role of educators in each of the learning processes of school-age and preschool children.

Keywords: Critical and creative thinking, school-age children, preschool children, the role of educators , school-age , preschool children .

Tanqidiy fikrlash nima ? Tanqidiy va ijodiy fikrlash nima uchun kerak ? Ijodiy fikrlash bu yangi g‘oyalar va yondashuvlar bilan bir qatorda zamonga hamnafas holda fikrlay olish insonda bor istedod va qobiliyatni tushunish , ko‘rsata bera olish hamdir . Bu ta‘lim olayotgan o‘quvchilarga katta rasmni ko‘rish uchun nuqtalarni o‘ylash va bog‘lash imkonini beradigan tanqidiy hayotiy mahoratdir. Bundan tashqari, u tasavvurni rivojlantiradi va bolalarga dunyoni boshqa bir tarafdin ko‘rishga imkon beradi.

Hozirgi kunda dunyo tez o‘zgarib bormoqda va u o‘rganishga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Global zamonda dolzarb bo‘lgan ish va ko‘nikmalar kelgusi bir necha yil ichida eskirishi mumkin. Tanqidiy fikrlash so‘ziga keladigan bo‘lsak voqea yoki ma‘lum bir masalani chuqur kuzatish va chuqur tahlil , to‘g‘ri baholay olishni o‘z ichiga oladi. Bu sizga o‘ylash va osonlikcha hal qilib bo‘lmaydigan muammolarga yechim topishga imkon beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari har bir kasbda va martabada eng ko‘p talab qilinadigan ko‘nikmalardir .Bugungi kunda tarbiyalanayotgan yoshlarga biz dunyo

qarashini fikrlashini va har qanday sharoitda to'g'ri qaror chiqarishiga yordam berib borishimiz lozim . Ya'ni bu holatni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash yaxshi samara beradi . Shu qatorda bolalarni tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatishimiz ham maqsadga muvofiq , chunki bu juda muhim malakaga asoslangan tushuncha bo'lib bu kelajakda ular uchun ko'pgina foyda keltiradi..

Maktab yoshidagi bolalar , o'quvchilar balki maktabgacha yoshdagi bolalar ham tanqidiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini erta rivojlantirish ularni aqliy faoliyatlarini tez o'sishiga yordam beradi . Bu tushunchalarni o'stirish albatta o'qituvchi , pedagoglarning olgan bilim , malaka va qobiliyatlariga bog'liq .

O'qituvchilar asosan , o'quvchilarga vaziyatlarni tushunish , o'quvchida bor qobiliyatini oshirishiga , muammolarni hal qilishiga , kuzatish, savodxonlik va til ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyatlarini yaxshilashga sabab bo'ladi . O'rganish mumkin bo'lgan ko'nikmalarining ba'zilari masalan , so'roq qilish, mantiqdan foydalanish, tahlil qilish, tekshirish, talqin qilish, mulohaza yuritish, bog'lash, tasniflash, taqqoslash, bashorat qilish kabilarni to'g'ri tushunish va qabul qila olish ularni hayotlari davomida qabul qiladigan har bir qarorida asqotadi . Maktab yoshidagi o'quvchilar

Ijodiy fikrlash bu yangi g'oyalar va yondashuvlar bilan bir qatorda zamonga hamnafas holda fikrlay olish insonda bor istedad va qobiliyatni tushunish , ko'rsata bera olish hamdir . Bu ta'lim olayotgan o'quvchilarga o'qiyotgan kitoblari , bilimlari orqali o'zgarib borayotgan dunyoga mos yangiliklar , inavatsion g'oyalar kirita olish , nafaqat ijodiy balki har qanday masalaga ijobiy , kreativ qarash orqali tasavvurini yanada kengaytiradi . Bundan tashqari, u tasavvurni rivojlantiradi va bolalarga dunyoni boshqa ob'ektiv bilan ko'rishga imkon beradi. Bunday fikrlash turli kasblar va sohalarida yuqori baholanadi .

Chet ellik mutaxassislarning fikriga ko'ra turli qarashlarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish , yangiliklar yaratish ya'ni bu u ikki qobiliyat insonning dunyoni anglashida, hayotiy vaziyatlarga to'g'ri yondashishida muhim rol o'ynashi haqida aytib o'tgan . Undan tashqari dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarida tanqidiy va ijobiy fikrlash yo'nalishlariga katta e'tibor berilmoqda hamda rivojlantirilmoqda . Bundan maqsad 2027-yilgacha 1.8 million tanqidiy fikrlovchilarni tayyorlash .

Bu qobiliyatlarni rivojlanishida o'qituvchi va uning metodlari ham alohida ahamiyatga ega . Masalan , dars metodlari orqali bo'lishi mumkin . Birinchi metod sifatida 4K modelini oladigan bo'lsak , bu modelda bu tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuv bo'lib, quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi .Kritik fikrlash bu ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash , kreativ fikrlash yangi g'oyalar yaratish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash , kooperativ fikrlash jamoaviy ishlash va fikr almashish , kommunakativ fikrlash fikrlarni aniq va samarali ifodalash Ikkinchi metod

deb dars davomida yozishadi bu ham yaxshi usul hisoblanadi O'quvchilarga insholar, sharhlar yoki tahliliy matnlar yozish topshiriqlari berish orqali ularning fikrlash va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu metod o'quvchilarga o'z fikrlarini mantiqiy va izchil tarzda ifodalashga yaxshi yordam beradi. Uchinchisi esa media ta'lim vositalaridan foydalanish , visual vositalar bu axborot texnologiyalari va media vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hisoblanadi . Mediata'lim vositalari yordamida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Bu metod o'quvchilarga axborotlarni , ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va tanqidiy yondashuvlarni qo'llashga yordam beradi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari nafaqat ta'limda, bilimda , til o'rganishda balki kundalik hayotda ham kerak , muhim ahamiyatga ega. Ular insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, muammolarni hal qilishda yordam beradi va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Shu sababli, ta'lim tizimida bu ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak .

Foydalanilgan adabiyotlar

https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash

<https://www.gazeta.uz/oz/tag/tanqidiy%20fikrlash/>

https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash

https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijodiy_qobiliyatlar